



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Raxmonova Xolida Shodiyevna

Sultanova Aziza Akmalovna

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan
1-son kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish ta'limi ustalari*

TO'QILGAN KIYIMLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Bugungi kunda respublikamizning tikuvchilik va trikotaj sanoati kundan-kunga rivojlanib va taraqqiy etib bormoqda. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan tikuvchilik va trikotaj tovarlari assortimenti kengayib, sifati esa yaxshilanib bormoqda. Ushbu maqolada trikotaj kiyimlar va uni ishlab chiqarish, trikotaj kiyimlarning xususiyatlari haqida malumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *trikotaj, sanoat, kiyim, to'qish, mato, gazlama, paxta, vazifa, konstruksiyalash, modellashtirish, bichish, glad, ip, detal.*

Tarixda mato to'qish san'ati jamiyatning eng qadimgi madaniy yutuqlaridan biri sanalgan. To'qilgan mato bitta yoki bir nechta ipni turli maxsus anjom vositasida o'rish jarayoni natijasi bo'lib, juda ko'p vaqtgacha mato qo'lda maxsus ilgak yoki temir piltalar yordamida to'qilgan.

To'qilgan kiyimlarga odatda trikotaj kiyimlar deyiladi. Deyarli barcha trikotaj kiyimlarining klassik turlari va shakllari (djemper, sviter va boshqalar) XIX asrning ikkinchi yarmida Angliyada dastlab erkaklar sport kiyimi sifatida paydo bo'lgan. XX asr boshlarida Koko Shanel erkaklar garderobidan djemper, pulover va kardiganni ayollar modasiga kiritdi va shu bilan trikotaj kiyimlarini urf qildi. Shundan buyon trikotaj kiyimlari zamonaviy insonning garderobida mustahkam o'rinni egalladi va buning sabablarini insonga komfort hissini baxsh etish, universallik, tashqi ko'rinishi, iste'molchi ko'rsatkichlarining rang-barangligi, qomat tuzilishiga qaramay insonlar tanasida yaxshi o'rnashuvi bilan izohlash mumkin. Trikotaj ishlab chiqarishi gazlama ishlab chiqarishga nisbatan 2,5...3 barobar unumdorlikka ega bo'lgani uchun trikotaj matolarining tannarxi past yuradi. Bu esa o'z navbatida bo'lg'usi kiyimlar narxida va dizaynerlik ishlanmalarining ko'payishida o'z aksini topadi.

Hozirgi kunda trikotaj polotnosidan gazlamadan tikiladigan deyarli barcha turdagi kiyimlarni ishlab chiqarish mumkin. Uning gigroskopiklik, issiq o'tkazuvchanlik, g'ijimlanmaslik va chidamlilik kabi zo'r xususiyatlari hisobiga trikotaj kiyimlari iste'molchilar orasida doimo urfda.

Hozirgi paytda mahalliy paxta xomashyosidan raqobatbardosh, dunyo standartlari talabiga javob beradigan ustki va ichki trikotaj kiyimlari, paypoq buyumlari, sport kiyimlari ishlab chiqarilib butun dunyoga eksport qilinmoqda.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Trikotaj buyumlari assortimentiga avvalo kiyim (ichki, ustki, bolalar, sport va x.k.), donali va galanteriya buyumlari, tibbiy va profilaktik buyumlar kiradi. Trikotaj kiyimlari ishlab chiqarish usuli, to'qima turi, uning tola tarkibi, model belgilari bo'yicha farqlanadi. Vazifasiga ko'ra trikotaj kiyimlari ustki kiyimlar, ichki kiyimlar, paypoq-noski buyumlari, qo'lqop buyumlari bosh kiyimlar, ro'mol-sharflarga bo'linadi. Ustki trikotaj kiyimlariga jaket, djemper, sviter, palto, yarimpalto, kurtka, kostyum, ko'ylak, sarafan, yubka, shim va boshqalar; ichki kiyimlarga fufayka, ishton, sorochka, pijama, tungi komplektlar; sport kiyimlari – mayka, bodi, cho'milish kiyimlari, leggins –shimlar kiradi.

Djemper – taqilmasiz yoki taqilmasi kiyim etagigacha yetmagan, yangi turli uzunlikda va bo'yin o'mizi har xil shaklda bo'lgan trikotaj kofta. Djemper yoqali va taqilmasi ko'krak chiziqqacha bo'lganda unday djemper polo deyiladi.

Pulover – yoqasiz va taqilmasiz, yangi turli uzunlikdagi va bo'yin o'mizi V- shaklda bo'lgan fufayka.

Sviter- yangi va taqilmasiz, baland yoqali (5 sm dan ko'p), lastik o'rilishli trikotaj vodalaska.

Futbolka – bo'yin o'mizi oval yoki V- shaklli taqilmasiz trikotaj kiyim. Ustki trikotaj kiyimlar mavsumi va vazifasiga ko'ra kuzgi, yozgi, bahorgi va qishgi bo'lishi mumkin. Ustki trikotaj kiyimlari yopishgan yoki yarim yopishgan siluetli, turli yeng bichimi va konstruksiyali qilib tayyorlanadi. Ular jun, akril, nitron va boshqa aralash tolali iplardan to'qilishi mumkin.

Yoz va bahorga mo'ljallangan ustki trikotaj kiyimlar yengil va yupqaroq polotnadan tayyorlanadi. Yoz va bahorgi kiyim assortimentiga ko'ylak va bluzkalar, tenniska-polo, sarafan, futbolka va bodi, yubka va shimlar kiradi. Kiyimlar aksariyat yengil va yupqa trikotaj polotnalaridan tayyorlanadi, ularning bichimi va konstruksiyasi, silueti, bezalishi moda yo'nalishiga qarab o'zgaradi.

Trikotaj buyumlari xomashyo turiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: paxta tolali, jun tolali, kimyoviy tolali, sintetik yoki aralash tolali va x.k. Zamonaviy trikotaj buyumlarining ko'rinishini bejirim va ko'rkam, qulaylik nuqtai nazaridan alohida xususiyatli qilib (issiq saqlovchan, isitmaydigan, elastik, universal, suv va namga chidamli va x.k.) ishlab chiqarilayapti.

Trikotaj buyumlari yosh-jins belgisiga ko'ra erkaklar, ayollar va bolalar kiyimiga bo'linadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayollar ustki kiyimlari assortimenti polotno va xomashyo turi, model belgilari va badiiy koloristik yechimi bo'yicha erkaklarnikiga nisbatan ancha keng.

Ishlab chiqarish turiga ko'ra trikotaj buyumlari muntazam, yarimmuntazam (kupon holida), bichiladigan va aralash usulda ishlab chiqarilgan turlarga bo'linadi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Muntazam turdagi trikotaj buyumlar belgilangan shakl va razmerda kalava ipdan yaxlit qilib to'qiladi. Yarimmuntazam trikotaj kiyimlar ikki chetiga ishlov berilgan kupon polotnosidan tikiladi. Bunday buyumning tanasi yon choksiz yaxlit bo'lib, kiyimda faqatgina yeng va bo'yin o'mizlari, yeng qiyamasi bichiladi. Bichilgan trikotaj buyumlari trikotaj polotnosini bichish va keyin tikish usuli bilan ishlab chiqariladi.

Trikotaj buyumlarining 60% bichilgan holda tayyorlanadi, shu bois quyida faqat ularga oid konstruktiv xususiyatlar keltirilgan:

- aralash ishlab chiqarish usulida kiyim asosiy detallari polotnodan bichiladi, bezak detallari esa muntazam usulda to'qiladi.

- trikotaj polotnoni pardozlash usuliga ko'ra trikotaj buyumlari oqartirilgan, bir rangli, gul bosilgan, fakturalangan, relief o'rilishli, maxsus eritma bilan ishlov berilgan (kam g'ijimlanuvchan, kam kirishuvchan, kir yuqtirmaydigan va boshqalar) bo'ladi.

Trikotaj buyumlarining ko'p jixatlari trikotaj matoning xususiyatlari bilan belgilanadi. Trikotaj matoning xossalari kiyim shakli va bichimini aniqlashda, modellashtirish va bezashda, texnologik ishlov berish usullarini tanlashda asosiy hal qiluvchi omildir. Dizayner yaratgan eskiz yoki model namunasi buyum silueti shaklini, asosiy konstruktiv parametrlar va detallar razmerlarini, tipaviy figura uchun konstruktiv qo'shimchalarni aniqlashning asosi bo'lib hisoblanadi.

Trikotaj kiyimlarini konstruksiyalash va modellashtirish, bichish, kiyim tayyorlash jarayonlarida trikotaj matosining cho'ziluvchanlik, elastiklik va kirishuvchanlik, shu bilan birga titiluvchanlik, buraluvchanlik, so'kiluvchanlik kabi salbiy xossalari ham hisobga olinadi.

Trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish bichish, yarim muntazam, muntazam va yaxlit to'qilgan usullar bilan amalga oshiriladi.

Bichish usuli mohiyati shundaki, yassi ignadonli mashinada asosan trikotaj polotnosi yoki aylana ignadonli to'qish agregatlarida trubasimon polotno to'qiladi, ulardan modelga muvofiq muayyan razmer va shakldagi (gazlamadan kiyim detallarini bichishga o'xshash) detallar bichib olinadi. Usulning afzalligi shundaki, uni qo'llash natijasida har qanday murakkablikdagi model detallarini bichish mumkin, kamchiligi-bichiqalarda trikotaj polotnosining 18-25% chiqindiga chiqib ketadi.

Yarim muntazam usulga ko'ra yassi va trubasimon kupon trikotaj polotnosidan kiyim ishlab chiqariladi, bunda kupon kengligi detal kengligiga teng, yoki detal kupon yuziga bir necha marta butunligicha qo'yib bichiladi.

Muntazam usulda to'qish dastgohida detal tugallangan kontur asosida to'qiladi va ularni yana bichish talab etilmaydi. Muntazam turdagi trikotaj buyumlar belgilangan shakl va razmerda kalava ipdan yaxlit qilib to'qiladi. Bunda buyumning pastki chetlari to'qish jarayonining boshida to'qib olinadi, ya'ni buyumning asosi birinchi navbatda to'qib olinadi, qolgan konturlari esa ignalar sonini o'zgartirib shakllantiriladi, ya'ni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

ignalar sonini kamaytirib yoki ko'paytirib boriladi. Ushbu usulda to'qilganda xomashyo chiqindisi 3-5%dan oshmaydi. Muntazam usulda trikotaj korxonalarida mayda detallar, cho'ntak, yoqa, belbog' va boshqalar to'qiladi.

Muntazam va yarim muntazam usullar bichish usuliga qaraganda iqtisodiy jihatdan tejamkor hisoblanadi. Hozirgi paytda bu usullar trikotaj buyumlarini ishlab chiqarishda tobora kengroq ishlatilmoqda.

Yaxlit to'qilgan buyumlarga yassifang elektron to'qish uskunalarida avtomatik rejimda to'qilgan buyumlarga aytiladi va bunday texnologiya choksiz texnologiya deyiladi. Ushbu texnologiya ancha murakkab bo'lib, trikotaj buyumlarini ishlab chiqarishda kesish va iplarni ilib olish tizimlari bilan jihozlangan oxirgi avlod yassifang elektron to'qish mashinalarini qo'llashni taqozo etadi.

Trikotaj kiyimlarini to'qish jarayonida har xil o'rilish turlaridan foydalanib, yoki kalava ipdan to'qish mashinasi parametrlarini o'zgartirib, vitochka va burmalarsiz ham ularning hajmiy shaklini olish mumkin. Bir o'rilish turidan ikkinchisiga o'tilganda konstruktiv shakl yaratiladi, masalan, lastik o'rilishdan glad o'rilishga o'tganda va aksincha.

Muntazam va yarim muntazam trikotaj buyumlariga shakl berishda biriktirish choklari iloji bo'lsa kamroq bo'lgani ma'qul, detal konturlari oddiy, etak chizig'i gorizontal bo'lishi kerak.

Trikotaj matolaridan tikilgan kiyimni kiyib yurish qulay, odam badanini siqmaydi. Ularning issiqni saqlab qolishi va gigienik xususiyatlari juda yaxshi. Trikotaj matolari yuvilganda va xatto kimyoviy tozalashda ham bo'y-lamasiga kirishadi, eniga esa kengayadi. Shu tufayli trikotajdan tikilgan buyumlar o'z shaklini tez yo'qatadi. Ichki kiyimlarni tikish uchun bo'y-lamasiga ko'ndalangiga to'qilgan matolar ishlatiladi. Maya, ishtonlar, bolalar kiyimlari uchun bu matolar paxta tolali ipdan "Glad" o'rilishda ishlab chiqariladi. Bu buyumlar lavsan tolali xajmdor iplardan tayyorlanadi. Issiq saqlovchi ichki kiyimlar uchun paxta tolali iplar, nitron va viskoza aralashmasidan olingan iplardan, sirtiga tuk chiqariladigan matolar ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pulatova S.U. Trikotaj kiyimlarini konstruksiyalash va modellashtirish. T., Turon- Iqbol, 2006 yil.
2. Н.А.Архангел'ский и др. Технология трикотажно-швейного производства, Гостехиздат, 1963 г.
3. X.X.Kamilova N. K. Hamrayeva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". Toshkent "Cho'lpon" 2011yil.
4. M. Jabborova. "Tikuvchilik texnologiyasi" Toshkent. "O'qituvchi" 1989yil
5. Ramazanova M.K., Tashpulatov S.Sh. Kiyimni modellashtirish va badiiy bezash. Toshkent, 2010yil.